

“Mikrokreditbank” ATB Boshqaruv raisining

Korrupsiya holatlarining oldini olish va bu borada tizimli kurashish yuzasidan yo'llagan

MUROJAATI

Hurmatli mijozlar, hamkorlar, aksiyadorlar va hamkasblar,

Mikrokreditbank tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan barcha zaruriy choralarni ko'rish, ularni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha samarali tizim yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlarimizni bu yil ham izchillik bilan amalga oshirishga jiddiy bel bog'laganmiz.

Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan eng xavfli illat. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurash dunyo hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatning barcha sohalarida korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi omillarga chek qo'yishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Mikrokreditbank tomonidan ushbu islohotlar doirasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan davrda bu borada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida tuzilma tashkil etilib, aniq vazifalar belgilab berildi.

Ta'kidlashim kerakki, Mikrokreditbankda korrupsiyaning oldini olish choralarni ko'rish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirish borasidagi ishlar uzluksiz va izchillik bilan davom ettiriladi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizning barcha a'zolari “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Shuning uchun barchamiz bugungi tinchlik-osoyishtalik hukm surgan yurtimizda adolat tamoyillari asosida halol mehnat qilishimiz zarur va shart.

O'z navbatida, Mikrokreditbankda mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodimni korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat vazifalarini halol va xolis bajarishga yana bir bor chaqiraman.

Men mazkur murojaatim bilan yana Siz aziz mijozlarimizni MKBANK tizimida korrupsion holatlar kuzatilganda yoki shubha tug'diruvchi va noqonuniy holatlar yuz berganida aloqa kanallarimiz orqali murojaat qilishga chorlab qolaman.

Bu borada Sizning hamkorligingiz va qo'llab-quvvatlashingiz muhim ahamiyatga ega, biz esa faoliyatimizning barcha jabhalarida halollik va javobgarlikning eng yuqori standartlarini qo'llab-quvvatlashga intilamiz.

Hurmat bilan,

Butayev Orif Aliboyevich

“Mikrokreditbank” ATB Boshqaruv raisi